

## AHOLI PUNKTI HUDUDIDAGI YER RESURSLARINING HISOBI(BALANSI)NI YURITISHNI RAQAMLASHTIRISH

**Jurakulov Doniyor Ochilovich**

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti  
professori, t.f.n.

**Yarkulov Zokir Rahmanovich**

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

**Annotatsiya:** Axoli punkti xududidagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlari, foydalanuvchilarining mulkchilik shakli va xo'jalik yuritish faoliyati bo'yicha egallab turgan yer maydonidagi o'zgarishlar xisoboti(balansi)ni ularning "Yer toifasi", "Huquqiy" va "Xo'jalik yuritish" maqomlari ma'lumotlarini va xududning xaritasini raqamlashtirish ishlari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yer, uchastka, xudud, xisob, balans, tizim, sifat, miqdor, axbopot, texnologiya, monitoring, resurs, ma'lumotlar bazasi, mulk, xo'jalik, ro'yxat, xatlov, xuquq, muxofaza, tarixiy, madaniy, texnik.

**Kirish:** Aholi punkti hududidagi yer fondidan davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun foydalanishda aholi punkti chegarasidagi yerlarning tarkibi, miqdori, sifat holati va haqiqiy foydalanilayotganlik darajasi, obodonlashtirilganligi, muxandislik kommunikasiya inshootlari bilan ta'minlanganligi va hududning umumiyligi yer xisobi to'g'risidagi axborot manbai hisoblanishi va mazkur hududdagi yuridik, jismoniy va xorijiy shaxslarning yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqqa asos bo'lishi hamda xudud bo'yicha yer resurslarning aniq hisobini va yer balansi yuritish faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritish talabi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi [1;2;4].

**Tadqiqot metodologiyasi va uslublari.** Tadqiqot obekti bo'lib Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi "Payariq" shaxarchasi xududidagi yer uchastkalarining foydalanish maqsadiga ko'ra yer toifasidagi, mulkchilik shaklidagi va xo'jalik yuritish faoliyatdagi o'zgarishlari yilning yakuniy holati bo'yicha o'tkazilgan xatlov natijasida olingan ma'lumotlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib- Axoli punkti xududidagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlari egallab turgan yer maydonlarining yer toifasidagi o‘zgarishlar xisobi(balansi)ni **“Yer toifasi maqomi”** hamda yer toifalari foydalanuvchilari egallab turgan yer maydonlarining mulkchilik shakli bo‘yicha o‘zgarishlar xisobi(balansi)ni ularning **“Huquqiy maqomi”** va ularning xo‘jalik yuritish faoliyati bo‘yicha o‘zgarishlar xisobi(balansi)ni **“Xo‘jalik yuritish maqomi”** bo‘yicha yuritishni

geoaxborot tizimi asosida raqamlashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, dala xatlovi, guruhlash, tizimlashtirish, natijalar ishonchlilagini statistik qayta tekshirish usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va muhokamasi.**

Yer hisobi (balansi) - bu bir ma’muriy-hududiy birlikdagi butun yer fondini tavsiflovchi hujjatlar tizimi bo‘lib, bunda, yer fondiga kiruvchi barcha yer uchastkalarining hisobot yili boshidagi xisobi va yil oxiridagi o‘zgarishlar hisobi(balansi)ni belgilangan tartibda ma’muriy chegarasi tasdiqlangan xududlar (aholi punktlari, tumanlar, viloyatlar va to‘liq davlat hududi) bo‘yicha yer fondining haqiqiy holatini aniqlash hisobi amalga oshiriladi.


Xozirgi kunda yuritilayotgan yer hisobi(balansi) yil davomida olib borilgan xo‘jaliklararo yer tuzish, xo‘jaliklarning ichki yer tuzish, kadastr yig‘majildini tayyorlashda o‘tkazilgan nazorat o‘lchovlari va yer fondidagi boshqa o‘zgarishlariga ta’luqli bo‘lgan ma’lumotlar asos qilib olinadi hamda yer xisobotlarida qayd qilinadi. Shundan, milliy yer xisobi(balansi)da (1-jadval) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalarning va qishloq aholi punktlarining) yerlari ma’lumot tarzida keltiriladi [5;6]. **1-jadval.**

<b>Aholi punktlarining yerlari</b>	
2.1.	Shahar va posyolkalarning yerlari ( <i>ma ’lumot tarzida keltiriladi</i> )
2.2.	Qishloq aholi punktlarining yerlari ( <i>ma ’lumot tarzida keltiriladi</i> )
<b>2.3.</b>	<b>Shahar va posyolkalarning uy-joy qurilishi yerlari</b>
2.3.1.	Ko‘p qavatli uylar bilan band bo‘lgan yerlar
2.3.2.	Yakka tartibdagi uylar bilan band bo‘lgan yerlar
	Uy-joy qurilishi yerlarning jami (13 + 14-satrlar)

Bunday yer hisobi(balansi), o‘z navbatida, yer resurslarining holati to‘g‘risidagi milliy hisobotda, ma’muriy-hududiy birlik xisoblangan axoli punktlari xududidagi tarkibiga kiradigan: *1.Uy-joy qurilishi; 2.Umumi y foydalanishdagi; 3.Kommunal-*

*maishiy, madaniy-ma'rifiy, savdo, ma'muriy, xizmat ko'rsatish, binolari va inshootlar qurilishi; 4. Daraxtzorlar egallagan; 5. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa; 6. Alohida muhofaza etiladigan hududlar; 7. Suv fondi; 8. Zaxira yerlari* yer fondi toifalarining barcha yerdan foydalanuvchilarning mulk huquqini hamda yer uchastkasidagi o'zgarish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmaganligini, aksincha, axoli punkti yeridan tashqarida joylashgan yer uchastkalari sifatida xisobga olinganligini ko'rishimiz mumkin [5;6], chunki, ma'muriy-hududiy birlik xisoblangan axoli punktlari xududida shahar (shaxarcha)larning yerlari tarkibiga kiradigan yer fondi toifalarining [1;2] joriy yil boshiga bo'lgan holati bo'yicha taqsimlanish xisobi qilinishi hamda yer fondi toifalarining haqiqiy holati va ulardan foydalanimishiga qarab, yer uchastkalarining maydonlari aholi punktlari, tumanlar, viloyatlar va to'liq davlat xududi bo'yicha yer xisoboti(balansi) tuzilishi va umumlashtirilishini hamda nashr etilishini ta'minlash uchun yil yakuni bo'yicha yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida keyingi yil boshidagi xududning yer xisobi(balansi)ni ishlab chiqish talab etiladi [3].


Yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobot har yili tayyorlanadi hamda butun mamlakat va ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yer xisobi(balansi) hududdagi yer uchastkalarining "Yer toifasi", "Huquqiy" va "Xo'jalik yuritish" maqomlari bo'yicha o'zgarishlar ma'lumotlari asosida 1-shaklga [6] muvofiq hududning yer hisobi(balansi)ni tuzishni yil yakuni 31 dekabrga bo'lgan hisoblar bo'yicha, keyingi yangi yil boshlanishi 1 yanvar holatidagi o'zgarishlarni, o'tgan yil boshidagi yer xisobi(balansi) bilan taqqoslangan holda ma'lumotlar bazasini shakllantirishni amalga oshiramiz.



1-shakl. Aholi punkti hududining yer hisobi(balansi)ni yuritish jarayoni.

Yer resurslarning hisobi(balansi)ni faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritish [4] talab etilganligini inobatga olib yer hisobini yuritishning dasturiy algoritimi tuzildi va ushbu algoritimni qo‘yidagicha tavsiflash mumkin (2-shakl).

Hududning yer hisobi(balansi) xududni iqtisodiy rivojlantirish, shaxarsozlik qurilishlari, soliqlashtirish va kommunal xizmatlari to‘lovlarini nazoratini tashkillashtirish hamda yer balansi faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritish imkoniyatini yaratish uchun «ArcGIS» dasturidan foydalanib hududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalari va ulardagagi o‘zgarishlar asosida “Yer toifasi”, “Huquqiy” va “Xo‘jalik”



**Бу ерда:**

- А-**ер тоифасидаги ўзгаринилар;
- В-** ер участкаларидан фойдаланувчиларнинг хукукий макоми бўйича ўзгаринилар;
- С-** ер участкаларидан фойдаланувчиларнинг хўжалик юритниши макоми бўйича ўзгаринилар;
- М-** худуддаги ер участкаларининг микдор кўрсатгичи;
- К-** худуддаги ер участкаларининг сифат кўрсатгичи.
- т-** ер участкаларидан фойдаланувчиларнингер тоифасидаги, хукукий ва хўжалик юритниши макомларидаги ўзгаринилар бўйича фойдаланишлар сони
- $t_k$** - ер участкаларидан фойдаланувчиларнинг ер тоифасидаги, хукукий ва хўжалик юритниши макомларидаги ўзгариниларидан зид равнешда ноқонуний фойдаланишлар сони


## 2-shakl. Hudud yer hisobini yuritishning dasturiy algoritimi


“yuritish” maqomlari bo‘yicha xududning yer hisobi(balansi)ni yuritishning ma’lumotlar bazasi va raqamlashtirilgan xaritalarini yaratishni 3-shaklga asosan quyidagi ketlikda amalga oshiramiz:

- ArsGIS dasturining ArcMap versiyasi kompyutor bazasiga o‘rnatiladi; hududni havodan turib raqamli fotokamera yordamida suratga tushiriladi (1-rasm, a); transformasiyalangan suratlardan joyning fotoplani tuziladi (1-rasm, b);

3-shakl.


Axoli punkti hududi yer hisobi(balansi)ni yuritish xaritalarini raqamlashtrish jarayoni





**1-rasm. Payariq shaxarchasining a) raqamli fotokamerada olingan fotosurati; b) transformasiyalangan fotoplan.**

- fotoplan olib joyga borib deshifrofka qilinadi;
- suratlarni ArcGIS dasturiga masshtab bo‘yicha tushiramiz  
➤ Deshifrofka qilingan fotoplani ArcGIS dasturining Arc Map ilovasi orqali xatlov natijasi xar bir yer uchastkasining atribut ma’lumotlari kompyuterga kiritilib hududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlarining egallab turgan maydonlari joriy yil yakuni 31 dekabrga bo‘lgan holati bo‘yicha hududning raqamli xaritasi yaratiladi (2-rasm) va



**2-rasm. Hududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlarining egallab turgan maydonlari xaritasi.**

umumiy yer maydoniga nisbatan foiz xisobi shakllantiriladi (2-jadval).

## 2-jadval.

### Payariq shaharchasi xududidagi yer fondi toifalarining 2021 yil 1 yanvarga bo‘lgan holati bo‘yicha taqsimlanishi

T/r	Yer fondi toifalari	Umumiy maydon	
		ga	%
1.	Uy-joy qurilishi yerkari	288,07	65,02
2.	Umumiy foydalanishdagi yerlar	45,98	10,38
3.	Kommunal-maishiy, madaniy-ma'rifiy, savdo, ma'muriy va xizmat ko'rsatish binolari hamda inshootlar qurilishi yerkari	77,37	17,46
4.	Daraxtzorlar egallagan yerkari	8,49	1,92
5.	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerkari	6,73	1,52
6.	Alohiba muhofaza etiladigan hududlar yerkari	14,15	3,19
7.	Suv fondi yerkari	0,98	0,22
8.	Zaxira yerkari	1,27	0,29
	Jami yerkari	443,03	100

➤ Hududidagi yer egalari va foydalanuvchilari yer maydonlarining yangi yil boshlanishi 1 yanvar holatidagi o‘zgarishlar xisobi(balansi)ni tasdiqlash to‘g‘risidagi vakolatli organning qarori 4-shaklga hamda hududdagi yer fondi

#### 4-шакл (Н а м у н а ! !).

##### ҚАРОР № 15-Қ

2022 yil « 4 » январ

Пайариқ шаҳарчаси худудидаги ер эгалари ва фойдаланувчилари ер

майдонларининг 2022 йил 1 январ ҳолатидаги хисоботи(баланси)ни тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон

Республика Давлат солиқ қўйитаси ҳузуридаги Кадастр агентлигининг давлат кадастрлари палатаси Самарқанд вилоят бошқармасининг 2021 йил 31 декабр ҳолатидаги Пайариқ шаҳарчаси худудидаги ер фонди тоифалари ва кичик тоифалари бўйича умумий хисоботи(баланси)ни кўриб чиқиб

##### ҚАРОР ҚИЛАМАН:

1. Ер фонди тоифалари ва кичик тоифалари турларининг 2022 йил 1 январ ҳолатидаги ер тоифаси бўйича хисоби 1-иловага асосан тасдиқлансин.

2.Ердан фойдаланишнинг ҳисобот давридаги ўзгаришлар хисоботи(баланси) қўйидаги иловаларга асосан тасдиқлансан:

Ер фонди тоифалари ва кичик тоифалари турлари бўйича умумий ер майдонларининг 2022 йил 1 январ ҳолатидаги ер тоифасидаги ўзгаришлар хисоботи(баланси) 2-иловага;

ер фонди тоифалари майдони ва таркибининг 2022 йил 1 январ ҳолатидаги ҳуқуқий мақоми бўйича ўзгаришлар хисоботи(баланси) 3-иловага;

ер фонди тоифалари майдони ва таркибининг 2022 йил 1 январ ҳолатидаги хўжалик юритиши мақоми бўйича ўзгаришлар хисоботи(баланси) 4-иловага;

3.Туман давлат солиқ инспекцияси бошлиғига ушбу ердан фойдаланувчиларнинг ундириладиган солиқ тушумларини қонунчиликда белгиланган тартибда амалга оширсинглар.

4. Кадастр агентлигининг Давлат кадастрлари палатаси Самарқанд вилоят бошқармаси фойдаланиш ҳолатини доимий назорат қилиб бориш бошлиғига Пайариқ шаҳарчаси худудидаги ерлардан самарали ва қонуний хамда ер фонди хисоботи(баланси)ни Давлат кадастрлари ягона тизимига тақдим этиш юклатилсин.

5. Ушбу қарорнинг тасдиғи Самарқанд вилоят хокимлигидан сўралсин.

Туман ҳокими:


toifalari va kichik toifalari turlarining egallab turgan maydonlari hududning umumiy yer maydoniga nisbatan foiz xisobi 1-ilovaga asosan;

**1-ilova.**

**Hududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalarining egallab turgan maydonlari umumiy yer maydoniga nisbatan foiz xisobi**

<b>1.</b>	<b>Уй-жой қурилиши ерлари</b>	<b>288,07</b>	<b>65,02</b>
1.2.	Якка тартибдаги уйлар билан банд бўлган ерлар	282,68	63,80
1.3.	Кўп қаватли уй-жой бинолари	5,38	1,22
<b>2.</b>	<b>Умумий фойдаланишдаги ерлар</b>	<b>45,98</b>	<b>10,4</b>
2.2	Кўчалар ва тор кўчалар.	45,98	10,4
2.3	Кўкаламзорлаштириш ерлари		
2.4	Суғориш тармоғи ва соҳил бўйи ерлари		
<b>3.</b>	<b>Коммунал-майший, маданий-маърифий, савдо, маъмурӣ, хизмат қўрсатиш бинолари ва иншоотлар қурилиши ерлари</b>	<b>77,37</b>	<b>17,46</b>
3.1.	Коммунал хизмат аҳамиятга молик ерлар.		
3.2.	Майший хизмат аҳамиятга молик ерлар.	5,77	1,30
3.3.	Маданият бинолари қурилиши ерлари.	3,81	0,86
3.4.	Маърифат бинолари қурилиши ерлари.		
3.5.	Савдо - сотик бинолари қурилиши ерлари.	8,14	1,84
3.6.	Маъмурӣ бинолари қурилиши ерлари.	34,31	7,74
3.7.	Хизмат қўрсатиш бинолари қурилиши ерлари.		
3.8.	Соғлиқни саклаш бинолари қурилиши ерлари.	4,05	0,91
3.9.	Майший-савдо бинолари қурилиши ерлари.	14,29	3,22
3.10.	Мухандислик иншоотлар қурилиши ерлари.	7,00	1,58
<b>4.</b>	<b>Дараҳтзорлар эгаллаган ерлар</b>	<b>8,49</b>	<b>1,92</b>
4.1	Кўчатзорлар		
4.2	Иссикхоналар	2,80	0,63
4.3	Маданият –истироҳат боғлари	5,69	1,28
<b>5.</b>	<b>Саноат, транспорт, алоқа, мудофаа ерлари</b>	<b>6,73</b>	<b>1,52</b>
5.1.	Саноат қурилиши ерлари.	4,70	1,06
5.2.	Алоқа ерлари.	2,03	0,46
<b>6.</b>	<b>Алоҳида муҳофаза этиладиган ҳудудлар ерлари</b>	<b>14,15</b>	<b>3,19</b>
6.1	Соғломлаштириш максадларига мўлжалланган ерлар		
6.2	Тарихий-маданий максадларга мўлжалланган ерлар	14,15	3,19
<b>7.</b>	<b>Сув фонди ерлари</b>	<b>0,98</b>	<b>0,22</b>
7.1	Каналлар	0,98	0,22
<b>8.</b>	<b>Захира ерлар</b>	<b>1,27</b>	<b>0,29</b>
<b>Жами ерлар:</b>		<b>443,03</b>	<b>100</b>

➤ xududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlari egallab turgan yer maydonlarining yer toifasidagi (*yer toifasi maqomi bo'yicha*) o'zgarishlar raqamli xaritasi (3-rasm) va xisoboti(balansi) 2-ilovaga asosan;



**3-rasm. Hududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlari egallab turgan yer maydonlarining yer toifasidagi (yer toifasi maqomi bo'yicha) o'zgarishlar xaritasi**

2-ilova

**Xududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalari turlari egallab turgan yer maydonlarining yer toifasidagi(yer toifasi maqomi bo'yicha) o'zgarishlar xisoboti(balansi)**

Т/р	Ер фонди тоифалари ва кичик тоифалари	Умумий ер майдонларидаги ўзгаришлар, га		
		2021 йил	2022 йил	Фарки (+,-)
		1 январ холатига	1 январ холатига	
1.	Уй-жой курилиши ерлари	288,07	282,79	-5,28
1.2.	Якка тартибдаги уйлар билан банд бўлган ерлар	282,68	276,06	-6,62
1.3.	Кўп каватли уй-жой бинолари	5,38	6,73	1,34
2.	Умумий фойдаланишдаги ерлар	45,98	45,98	-
2.2.	Кўчалар ва тор кўчалар.	45,98	45,98	-
2.3.	Кўкаламзорлаштириш ерлари			
2.4.	Суфориш тармоғи ва соҳиҳ бўйи ерлари			
3.	Коммунал-мавший, маданий-маърифий, савдо, маъмурӣ, хизмат кўрсатиш бинолари ва иншоотлар курилиши ерлари	77,37	78,54	1,17
3.1.	Коммунал хизмат аҳамиятга молик ерлар.			
3.2.	Мавший хизмат аҳамиятга молик ерлар.	5,77	4,43	-1,34
3.3.	Маданият бинолари курилиши ерлари.	3,81	3,81	-
3.4.	Маърифат бинолари курилиши ерлари.		2,52	2,52
3.5.	Савдо - сотикий бинолари курилиши ерлари.	8,14	8,14	-
3.6.	Маъмурӣ бинолари курилиши ерлари.	34,31	34,31	-
3.7.	Хизмат кўрсатиш бинолари курилиши ерлари.			
3.8.	Соғлиниги саклаш бинолари курилиши ерлари.	4,05	4,05	-
3.9.	Мавший-савдо бинолари курилиши ерлари.	14,29	14,29	-
3.10.	Мухандислик иншоотлар курилиши ерлари.	7,00	7,00	-
4.	Дарахтзорлар эгаллаган ерлар	8,49	11,87	3,38
4.1.	Кўчачатзорлар			
4.2.	Иссикжононлар	2,80	2,80	-
4.3.	Маданият -истироҳат боғлари	5,69	9,07	-
5.	Саноат, транспорт, алоқа, мудофаа ерлари	6,73	7,46	0,73
5.1.	Саноат курилиши ерлари.	4,70	5,43	0,73
5.2.	Алоқа ерлари.	2,03	2,03	-
6.	Алоҳида муҳофаза этилдиган худудлар ерлари	14,15	14,15	-
6.1.	Соғломташтириш максалларига мўлжалланган ерлар			
6.2.	Тарихий-маданий максалларига мўлжалланган ерлар	14,15	14,15	-
7.	Сув фонди ерлари	0,98	0,98	-
7.1.	Каналлар	0,98	0,98	-
8.	Захира ерлар	1,27	1,27	-
Жами ерлар:		443,03	443,03	0,00

➤ xududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalaridan foydalanuvchilari egallab turgan yer maydonlarining mulkchilik shakli (*huquqiy maqomi*) bo'yicha o'zgarishlar raqamli xaritasi (4-rasm) va xisoboti(balansi) 3-ilovaga asosan;



**4-rasm. Hududidagi yer fondi toifalari va kichik toifalaridagi mulkchilik shakli (*huquqiy maqomi*) bo'yicha o'zgarishlar xaritasi**

**3-ilova**

**Hududidagi yer fondi toifalari va kichik toifalaridagi mulkchilik shakli (*huquqiy maqomi*) bo'yicha o'zgarishlar xisoboti**

Т/р	Ер фонди тоифалари ва кичик тоифалари	Жами ер майдони га	Шундан, мулчиллик шакли бўйича умумий ер майдонларидаги хисоби, га			
			Давлат	Жамоа	Хуусусий	Хорижий
<b>1.</b>	<b>Уй-жой курилиши ерлари</b>	<b>288,07</b>			<b>288,07</b>	
1.2.	Якка тартибдаги уйлар билан банд бўлган ерлар	282,68			282,7	
1.3.	Кўп каватли уй-жой бинолари	5,38			5,4	
<b>2.</b>	<b>Умумий фойдаланишдаги ерлар</b>	<b>45,98</b>	<b>45,98</b>			
2.2	Кўчалар ва тор кўчалар.	45,98	45,98			
2.3	Кўкаламзорлаштириш ерлари					
2.4	Суғориш тармоғи ва соҳиҳ бўйи ерлари					
<b>3.</b>	<b>Коммунал-майший, маданий-маърифий, савдо, маъмурӣ, хизмат кўрсатиш бинолари ва иншоотлар курилиши ерлари</b>	<b>77,37</b>	<b>41,31</b>	<b>3,81</b>	<b>32,25</b>	
3.1.	Коммунал хизмат аҳамиятга молик ерлар.					
3.2.	Маишӣ хизмат аҳамиятга молик ерлар.	5,77			5,77	
3.3.	Маданият бинолари курилиши ерлари.	3,81		3,81		
3.4.	Маърифат бинолари курилиши ерлари.					
3.5.	Савдо - сотик бинолари курилиши ерлари.	8,14			8,14	
3.6.	Маъмурӣ бинолари курилиши ерлари.	34,31	34,31			
3.7.	Хизмат кўрсатиш бинолари курилиши ерлари.					
3.8.	Соғлинича салоташ бинолари курилиши ерлари.	4,05			4,05	
3.9.	Маишӣ-савдо бинолари курилиши ерлари.	14,29			14,29	
3.10.	Муҳандислик иншоотлар курилиши ерлари.	7,00	7,00			
<b>4.</b>	<b>Дарахтзорлар эгаллаган ерлар</b>	<b>8,49</b>	<b>5,69</b>		<b>2,80</b>	
4.1	Кўчалорлар					
4.2	Иссикхоналар	2,80			2,80	
4.3	Маданият –истироҳат бөғлари	5,69	5,69			
<b>5.</b>	<b>Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаза ерлари</b>	<b>6,73</b>	<b>6,73</b>			
5.1.	Саноат курилиши ерлари.	4,70	4,70			
5.2.	Алоқа ерлари.	2,03	2,03			
<b>6.</b>	<b>Алоҳида муҳофаза этиладиган худудлар ерлари</b>	<b>14,15</b>	<b>14,15</b>			
6.1	Соғломлаштириш максадларига мўлжалланган ерлар					
6.2	Тарихӣ-маданий максадларга мўлжалланган ерлар	14,15	14,15			
<b>7.</b>	<b>Сув фонди ерлари</b>	<b>0,98</b>	<b>0,98</b>			
7.1	Каналлар	0,98	0,98			
<b>8.</b>	<b>Захира ерлар</b>	<b>1,27</b>	<b>1,27</b>			
<b>Жами ерлар:</b>		<b>443,03</b>	<b>116,11</b>	<b>3,81</b>	<b>323,12</b>	

➤ xududdagi yer fondi toifalari va kichik toifalaridan foydalanuvchilari egallab turgan yer maydonlarida xo‘jalik yuritish faoliyati bo‘yicha o‘zgarishlar xisoboti(balansi) 4-ilovaga asosan (*xo‘jalik yuritishi maqomi bo‘yicha*);

T/p	Ер фонди тоифалари ва кичик тоифалари	Таккослаш	Жами ер майдони га	Шундан, мулчиллик шакли бўйича умумий ер майдонларидағи ўзгаришлар, га			
				Давлат	Жамоа	Хусусий	Хорижий
1	Уй-жой қурилиши ерлари	2021	288,07			288,07	
		2022	282,79			282,79	
		Фарки(+/-)	-5,28			-5,28	
2	Умумий фойдаланишдаги ерлар	2021	45,98	45,98			
		2022	45,98	45,98			
		Фарки(+/-)					
3	Коммунал-маишӣ, маданий-маърифий, савдо, маъмурий, хизмат кўрсатиш бинолари ва ишоотлар қурилиши ерлари	2021	77,37	41,31	3,81	32,25	
		2022	78,54	41,31	6,32	30,91	
		Фарки(+/-)	1,17		2,52	-1,34	
4	Дарахтзорлар эгаллаган ерлар	2021	8,49	5,69		2,80	
		2022	11,87	9,07		2,80	
		Фарки(+/-)	3,38	3,38			
5	Саноат, транспорт, алоқа, мудофаа ерлари	2021	6,73	6,73			
		2022	7,46	6,73		0,73	
		Фарки(+/-)	0,73			0,73	
6	Алоҳида муҳофаза этиладиган ҳудудлар ерлари	2021	14,15	14,15			
		2022	14,15	14,15			
		Фарки(+/-)					
7	Сув фонди ерлари	2021	0,98	0,98			
		2022	0,98	0,98			
		Фарки(+/-)					
8	Захира ерлар	2021	1,27	1,27			
		2022	1,27	1,27			
		Фарки(+/-)					
8	Жами ерлар	2021	443,03	116,11	3,81	323,12	
		2022	443,03	119,49	6,32	316,49	0,73
		Фарки(+/-)	0,00	3,38	2,52	-6,62	0,73

Ushbu, mazkur axoli punkti hududning yer xisoboti(balansi)ni belgilangan tartibda vakolatli organning qarori (2-shakl) bilan tasdiqlangandan so‘ng, tizimli ravishda hududlar (tuman, shaxar, mintaqa va umum davlat) darajasida umumlashtirish va tegishli qarorlar qabul qilish va uchun yuqori vakolatli organlarga yuboriladi. Tasdiqlangan xisobot(balans) xuquqiy maqomga ega bo‘lgan xujjat hisoblanadi va butun mamlakat hududining Milliy xisoboti(balansi) maqomida foydalanish uchun nashr ettiriladi.

**Xulosha:** Yer hisobi(balansi) yer fondining toifalari va kichik toifalari bo‘yicha taqsimlanishini miqdor va sifat xisobini yuritish asosida yer toifasidagi, huquqiy va xo‘jalik yuritish maqomlaridagi o‘zgarishlar xisoboti(balansi) yuritsa quyidagi masalalarining ijobjiy yechilishiga imkoniyatlari yaratiladi:

1. Axoli punkti xududidagi yer uchastkalarining kadastr ma'lumotlarini yilning 31 dekabrdagi holati bo‘yicha umumlashtirish va bir tizimga solish hamda yangi yilning 1 yanvar holatiga yer hisobi(balansi)ni Milliy geografik axborot tizimiga taqdim etish.

2. Tuman, shahar geofond omborini axoli punktlari yer xisobi(balansi)ning tarixiy va zamonaviy geoaxborot ma'lumotlari to'plami bilan ta'minlash.
3. Axoli punkti hududidagi yer uchastkalari bilan bo'ladigan har qanday bitimlarni nazarat qilish, jumladan xududdagi soliq tushumi xamda muxandislik kommunikatsiyalarining ta'minot va tushum ko'rsatkichlari(gaz,suv,elektr va boshqalar bilan ta'minlash va ularga to'lanadigan tushim)ni nazorat qilish.
4. Axoli punkti hududida yer bozori munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, jumladan, soliq, ijara, sug'urta, investitsiyalash xamda tadbirkorlikni rivojlantirishda aniq, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etish.
5. Axoli punkti hududidagi yer uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanish uchun ilmiy asosda shaxarsozlik, muxandislik va qurilish qoidalarga rioya qilinishining hamda xududlarni kompleks-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini yaratish va boshqalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi O'RQ-456-sonli Qonuni tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O'z. R. 0.12.2019 y. O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan)
3. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 28 avgustdagagi "Davlat yer kadastro to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentabrdagi "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 yanvardagi «Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 1-son qarori ning «Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM»
6. Jurakulov D.O., Ibragimov L.T., Akaboyev J.A. Aholi punkti hududi yer resurslarining milliy yer hisobotini yuritish. O'zbekiston zamini. Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. 2021yil. 4-son, 29-bet. ISSN: 2181-9955.
7. Haydarovich, B. M., Yarkulov, Z. R., & Mashrab, P. (2023). Main Characteristics of Geoinformation Technologies and Modern Gis. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 194-200.

8. Abdurakhmonovich, A. G., Rakhmanovich, Y. Z., & Abdiazizovich, R. B. (2021). FORMATION OF THEMATIC STRUCTURES OF SMALL AREA FACILITIES DEVELOPING DANGEROUS HYDROMETEOROLOGICAL EVENTS ZONES OF HIGH NATURAL RISK. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 150-154.
9. Shermatovich, U. N., & Ramonovich, Y. Z. (2021). THE USE OF GIS TECHNOLOGY IN RECORDING AND CREATING A DATABASE OF AGRICULTURAL LAND IN BULUNGUR DISTRICT. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 30-39.
10. Ilmurodova, L. A., Umirzakov, Z. T., & Mirzayev, P. J. (2023). Development of a Methodology for Mapping the Cadastre of the World of Plants Using Geoinformation Systems. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 288-292.
11. Haydarovich, B. M., Lazizbek, I., Rakhmanovich, Y. Z., & Mashrab, P. (2023). Theoretical and Practical Issues of Water Cadastre Management. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 293-298.
12. Raximov, U. A. (2022, September). MADANIY MEROS OBYEKTALARINI JOYLASHGAN O'RNNI GNSS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB ANIQLASH. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 168-173).
13. Raimov, U. A., & Tuxtayev, Sh. X. (2021, October). Geodezicheskiy Monitoring Deformasiy Ansablya Registan. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 96-100).
14. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., & O'rozaliyev, B. B. (2023). Existing Class I Height in the Area of Samarkand Current Status of Points. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 205-208.
15. Haydarovich, B. M., Lazizbek, I., Rakhmanovich, Y. Z., & Abduazizovich, R. B. (2023). Description of Natural and Hydrographic Conditions of Kashkadarya Region. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 26-31.
16. Ilmurodova, L. A., Yarkulov, Z. R., Mirzayev, P., & Kosimov, S. (2023). GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB MADANIY MEROS YODGORLIKALARINI O 'RGANISH, TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA. *Scientific Impulse*, 1(8), 153-157.
17. Raximov, U. A., & Xamdamov, M. C. (2023). GEOPORTAL SISTEMIYI GOSUDARSTVENNOGO KADASTRA I IX INTEGRASIYa MEJDU AGENTSTVAMI. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 32-36.

18. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTTLARI DAVLAT KADASTRI BO‘YICHA TEMATIK QATLAMLARINING ATRIBUTIV MA’LUMOTLARINI YARATISH. In "*ONLINE-CONFERENCES PLATFORM*" (pp. 8-12).
19. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). CREATION OF ATTRIBUTIVE DATA OF THEMATIC STRUCTURES OF THE STATE CADASTRE OF MATERIAL CULTURAL HERITAGE OBJECTS. In "*ONLINE-CONFERENCES PLATFORM*" (pp. 1-5).
20. Raximov, U. A., Tojidinova, F. M., & Po‘latov, S. S. (2023). ISSUES OF FORMATION OF STATE CADASTRE DATA OF HIGHWAYS USING GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEM. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(7), 156-160.
21. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., Ilmurodova, L. A., & Tadjidinova, F. M. (2023). SAMARQAND VILOYATINI MADANIY ME’ROS OBYEKTTLARI XARITALARINI GAT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB YARATISH MASALALARI. *Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke*, 1(8), 255-257.
22. Ibragimov, L. T., Raximov, U. A., Yarkulov, Z. R., & Ortiqov, J. U. (2022). Improvement of the State Water Cadastre’s Management System. *INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES*.
23. Ochilovich, J. D., Toshpulat o‘g‘li, I. L., & Sunnatillo o‘g‘li, H. S. (2021). Systematization and Accounting of Buildings and Structures. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(1), 87-97.
24. Ochilovich, J. D., Toshpulat o‘g‘li, I. L., & Sunnatillo o‘g‘li, H. S. (2021). Systematization and Accounting of Buildings and Structures. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(1), 87-97.
25. Abdugapporovich, A. J. The Importance of the Water Inventory Card. *International Journal on Orange Technologies*, 3(10), 60-61.